



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Surxondaryo viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **19,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,7** mingtaga kamaygan yoki **7,9 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **8,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-iyunida **2650** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **49,7 %** ga ko'p demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.		2024-y.
21 026	Surxondaryo viloyati	19 373
3 710	Termiz sh	3 390
1 073	Angor	972
527	Bandixon	494
954	Boysun	840
2 460	Denov	2 386
1 559	Jarqo'rg'on	1 517
971	Qiziriq	875
1 416	Qumqo'rg'on	1 204
812	Oltinsoy	831
959	Muzrabot	841
1 207	Sariosiyo	1 104
1 303	Termiz	1165
1 162	Uzun	1 027
1 520	Sherobod	1 401
1 393	Sho'rchi	1 326

2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **19 373** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **2 650** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 390** tani yoki jamiga nisbatan **17,5 %** ni tashkil etdi.

1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Termiz	17,0
Termiz sh.	16,7
Boysun	9,9
Bandixon	9,6
Sherobod	9,5
Oltinsoy	8,7
Angor	8,2
Qiziriq	7,9
Uzun	7,7
Denov	7,7
Jarqo'rg'on	7,7
Sho'rchi	7,7
Muzrabot	7,6
Sariosiyo	7,4
Qumqo'rg'on	6,9

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1-iyul holatiga, birlikda



2024-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **8,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,3** birlikka ko'paygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida **17,0** birlik, Termiz shahrida **16,7** birlik, Boysun tumanida **9,9** birlik, Bandixon tumanida **9,6** birlik va Sherobod tumanida **9,5** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Termiz tumani
- 17,0 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Qiziriq tumani
- 7,9 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Qumqo'rg'on tumani
- 6,9 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Termiz tumanida 17,0 birlik, Termiz shahrida 16,7 birlik, Boysun tumanida 9,9 birlik, Bandixon tumanida 9,6 birlik, Sherobod tumanida 9,5 birlik, Oltinsoy tumanida 8,7 birlik, Angor tumanida 8,2 birlik, Qiziriq tumanida 7,9 birlik va Uzun tumanida 7,7 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Sherobod tumani

9,5

Boysun tumani

9,9

Termiz tumani

17,0

Bandixon tumani

9,6

Termiz shahri

16,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-y.

2024-y.

90	Angor	132
50	Bandixon	65
55	Boysun	86
155	Denov	336
138	Jarqo'rg'on	306
76	Muzrabot	84
109	Oltinsoy	158
129	Qiziriq	159
79	Qumqo'rg'on	145
95	Sariosiyo	129
189	Sherobod	161
108	Sho'rchi	209
68	Termiz	120
352	Termiz sh.	469
77	Uzun	91

2024-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Termiz sh.	17,7
Denov	12,7
Jarqo'rg'on	11,5
Sho'rchi	7,9
Sherobod	6,1
Qiziriq	6,0
Oltinsoy	6,0
Qumqo'rg'on	5,5
Angor	5,0
Sariosiyo	4,9
Termiz	4,5
Uzun	3,4
Boysun	3,1
Muzrabot	3,2
Bandixon	2,5

2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - **17,7** %, Denov tumani - **12,7** %, Jarqo'rg'on tumani - **11,5** %, Sho'rchi tumani - **7,9** %, Sherobod tumani - **6,1** %, Qiziriq tumani - **6,0** % va Oltinsoy tumani - **6,0** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



198

324


Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi



275

700

Sanoat



140

119

Qurilish



754

911

Savdo



56

50


Tashish va saqlash



133

254

Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



45

67

Axborot va aloqa



29

39

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish




140

186

Boshqa xizmatlar

2023-y. 2024-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 911 ta, sanoatda 700 ta Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 324 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Termiz shahrida 469 ta, Denov tumanida 336 ta va Jarqo'rg'on tumanida 306 ta yangidan tashkil etilgan.

2023-y. 2024-y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-iyun davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **13 998** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **4 823** (yoki **34,4 %**) ta, xizmatlar sohasida - **2 465** (yoki **17,6 %**) ta, sanoat sohasida - **3 398** (yoki **24,3 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2 423** (yoki **17,3 %**) ta va qurilish sohasida - **889** (yoki **6,4 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi



Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023-y. ■ 2024-y.




■ 2023-y. ■ 2024-y.2


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,2** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,1** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,6** % ni, yo'lovchi aylanmasida **98,3** % ni, chakana savdoda **96,8** % ni, qishloq xo'jaligida **96,3** % ni, yuk aylanmasida **96,4** % ni va qurilishda **91,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Termiz sh.	501,3
Sherobod	381,4
Sho'rchi	374,5
Denov	283,6
Muzrabot	233,2
Angor	188,3
Bandixon	178,8
Oltinsoy	165,0
Jarqo'rg'on	137,2
Qumqo'rg'on	120,3
Termiz	119,9
Uzun	117,7
Sariosiyo	108,9
Boysun	95,9
Qiziriq	48,0

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 054,0 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (501,3 mlrd. so'm), Sherobod tumani (381,4 mlrd. so'm), Sho'rchi (374,5 mlrd. so'm), Denov (283,6 mlrd. so'm) va Muzrabot (233,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qiziriq tumanida (48,0 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024-yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 59,2 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (100,0 %), Muzrabot tumani (98,7 %), Oltinsoy tumani (95,8 %), Boysun tumani (92,1 %), Sho'rchi tumani (76,5 %), Angor tumani (71,6 %) Termiz shahri (67,7 %), Sherobod tumani (67,1 %), Uzun tumani (56,1 %) va Denov tumani (55,1%) tashkil etdi.

Bandixon		100,0
Muzrabot		98,7
Oltinsoy		95,8
Boysun		92,1
Sho'rchi		76,5
Angor		71,6
Termiz sh.		67,7
Sherobod		67,1
Uzun		56,1
Denov		55,1
Termiz		52,1
Qumqo'rg'on		34,8
Sariosiyo		28,9
Qiziriq		27,5
Jarqo'rg'on		24,5

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	1425,8	98,0
Denov	369,5	96,4
Boysun	269,6	96,7
Termiz	257,9	95,2
Sariosiyo	215,7	56,7
Jarqo'rg'on	204,0	94,3
Angor	159,4	96,3
Sherobod	139,9	87,5
Qumqo'rg'on	135,2	97,3
Muzrabot	118,2	85,0
Sho'rchi	91,5	97,7
Qiziriq	89,8	94,5
Oltinsoy	79,9	94,8
Uzun	61,3	73,4
Bandixon	58,4	90,1

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 676,1 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 91,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 108,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (1425,8 mlrd. so'm), Denov (369,5 mlrd. so'm), Boysun (269,6 mlrd. so'm), Termiz (257,9 mlrd. so'm), Sariosiyo (215,7 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (204,0 mlrd. so'm) va Angor (159,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 633,5** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **47,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **84,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Sherobod (**570,8** mlrd. so'm), Termiz shahri (**481,1** mlrd. so'm), Denov (**438,5** mlrd. so'm), Oltinsoy (**345,4** mlrd. so'm), Sho'rchi (**325,2** mlrd. so'm), Muzrabot (**321,0** mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (**317,9** mlrd. so'm), va Jarqo'rg'on (**308,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15 396,7** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,3** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **104,1** % ni tashkil qildi.

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**2857,8** mlrd. so'm), Sherobod (**1569,5** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**1475,2** mlrd. so'm), Muzrabot (**1172,1** mlrd. so'm), Sho'rchi (**1086,0** mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (**1073,8** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.


2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Termiz sh.	62,9	84,7
Qiziriq	537,7	81,2
Bandixon	569,4	99,8
Termiz	698,7	93,8
Boysun	720,1	97,7
Oltinsoy	722,7	99,7
Angor	838,5	99,7
Uzun	1004,2	99,7
Sariosiyo	1008,1	98,1
Qumqo'rg'on	1073,8	98,2
Sho'rchi	1086,0	99,7
Muzrabot	1172,1	94,3
Jarqo'rg'on	1475,2	98,9
Sherobod	1569,5	97,7
Denov	2857,8	98,4

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 744,2** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,8** % ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **108,9** % ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Bandixon	159,2	99,0
Termiz	199,7	97,8
Sariosiyo	383,3	99,0
Boysun	412,9	99,4
umqo'rg'on	420,3	98,8
Oltinsoy	437,9	99,0
Muzrabot	445,6	99,2
Qiziriq	446,9	99,5
Uzun	469,6	99,1
Angor	489,2	99,2
Jarqo'rg'on	548,0	97,4
Sherobod	585,3	97,3
Sho'rchi	1 033,5	98,1
Termiz sh.	1 720,1	93,4
Denov	1 992,7	94,7

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**1 992,7** mlrd. so'm), Termiz sh. (**1 720,1** mlrd. so'm), Sho'rchi (**1 033,5** mlrd. so'm), Sherobod (**585,3** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**548,0** mlrd. so'm), Angor (**489,2** mlrd. so'm) va Uzun (**469,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Termiz sh	1114,0
Denov	672,3
Jarqo'rg'on	354,4
Sariosiyo	333,4
Sherobod	338,5
Sho'rchi	334,8
Qo'mqo'rg'on	316,6
Muzrabot	304,8
Oltinsoy	293,5
Angor	268,6
Termiz	264,3
Uzun	259,0
Qiziriq	255,3
Boysun	211,0
Bandixon	159,2

2024-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 479,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **65,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **113,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**1114,0** mlrd. so'm), Denov (**672,3** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**354,4** mlrd. so'm), Sariosiyo (**333,4** mlrd. so'm), Sherobod (**338,5** mlrd. so'm), Sho'rchi (**334,8** mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (**316,6** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari
(yanvar-iyun oylarida)

2920,4	Savdo xizmatlari	53,3
1119,6	Transport xizmatlari	20,4
277,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5,1
265,1	Shaxsiy xizmatlar	4,8
204,4	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,7
170,2	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,1
154,5	Ijara xizmatlari	2,8
109,5	Boshqa xizmatlar	2,1
90,1	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,6
64,2	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,2
43,6	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,8
56,3	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1,0
4,4	Moliyaviy xizmatlar	0,1

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida - **53,3** % (2 920,4 mlrd. so'm), transport xizmatlarida - **20,4** % (1 119,6 mlrd. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlarida - **5,1** % (277,4 mlrd. so'm) va shaxsiy xizmatlarda - **4,8** % (265,1 mlrd. so'm) ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda - **0,1** % (4,4 mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **106 864,7** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **84,9 %** ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Angor	13438,0	99,9
Qiziriq	12157,5	90,4
Jarqo'rg'on	11608,5	100,0
Qumqo'rg'on	10179,0	100,0
Muzrabot	9935,9	100,0
Sherobod	9162,1	90,5
Termiz sh.	8049,0	85,2
Sho'rchi	7059,6	94,8
Denov	5353,7	40,0
Oltinsoy	4350,7	100,0
Bandixon	3993,0	100,0
Sariosiyo	3408,3	100,0
Boysun	2785,0	100,0
Uzun	2488,9	41,2
Termiz	2163,6	40,5


hajmi, ming. AQSH dollar

ulushi, % da

2024-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jarqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida **100,0 %**, Bandixon tumanida - **100,0 %**, Sariosiyo tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Angor tumanida **99,9 %**, Sho'rchi tumanida **94,8 %**, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Termiz tumanida - **40,5 %**, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **66 979,6** ming AQSH dollarini yoki jami importning **87,8** % ini tashkil etdi.


2024-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da



2024- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0** %, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0** %, Bandixon tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** %, Boysun tumanida - **100,0** %, Uzun tumanida - **100,0** %, Angor tumanida - **100,0** %, Sherobod tumanida - **100** % va Oltinsoy tumanida - **100,0** % ni tashkil etdi.

Qiziriq	100,0
Qumqo'rg'on	100,0
Bandixon	100,0
Muzrabot	100,0
Boysun	100,0
Uzun	100,0
Angor	100,0
Sherobod	100,0
Oltinsoy	100,0
Sho'rchi	98,8
Denov	97,7
Termiz sh.	97,6
Jarqo'rg'on	94,9
Termiz	91,5
Sariosiyo	17,0


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



91,5 %

Yuk
tashishda


2024-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **106,9 %** ni tashkil qildi.



96,4 %

Yuk
aylanmasida


2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,3 %** ni tashkil qildi.



97,6 %

Yo'lovchi
tashishda

2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil qildi.




98,3 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,3 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1030** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **335 (32,6 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **636 (61,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **59 (5,7 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda - **40,0 % (412 ta)**, xizmatlar sohasida - **28,4 % (293 ta)**, sanoatda - **14,0 % (144 ta)**, qurilishda - **9,3 % (96 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **8,3 % (85 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

785,2	Termiz shahar	27,2
74,4	Angor	2,6
9,8	Bandixon	0,3
163,5	Boysun	5,7
487,0	Denov	16,9
191,2	Jarqo'rg'on	6,6
36,0	Qiziriq	1,2
117,7	Qumqo'rg'on	4,1
129,1	Oltinsoy	4,5
30,5	Muzrabot	1,1
193,1	Sariosiyo	6,7
64,3	Termiz	2,2
167,2	Uzun	5,8
151,6	Sherobod	5,2
287,2	Sho'rchi	9,9


Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (169 ta), Denov (135 ta), Jarqo'rg'on (81 ta), Sho'rchi (77 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning II choragida 334 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa 335 taga yetgan yoki 2019-yilning II choragiga nisbatan 1 taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda 440 ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-iyunida 636 ta yoki 196 taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa, 2019-yilda 30 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 59 tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 29 taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilanish deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning II choragida **660** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragiga kelib esa, **480** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **180** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning II choragida **123** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragida **373** ta yoki **248** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning II choragida **17** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **41** tani tashkil etib, **24** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **41,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **32,6** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **8,9** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **54,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragida **61,7** % yoki **7,0** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **3,8** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **1,9** % ga etgan yoki **5,7** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning II choragida **82,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **46,6** % ga yetgan yoki 2019-yilning II choragiga nisbatan **35,5** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning II choragida **15,5** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning II choragida **36,2** % yoki **20,7** % oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning II choragida **2,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **17,2** % yoki **14,8** % oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida - **40,3** % ni, qurilish sohasida - **36,5** % ni va sanoatda - **30,6** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **74,1** % ni, sanoatda - **65,3** % va savdoda - **65,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida - **11,4** % ni, savdo sohasida - **5,6** % ni va xizmat sohasida - **5,1** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **69,8 %** ni, xizmatda - **63,8 %** ni va sanoatda - **62,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **43,5 %** ni, savdo sohasida - **37,6 %** ni va sanoatda - **36,8 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi xizmat sohasida - **3,8 %** ni, savdo sohasida - **2,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **2,4 %** ni va qurilish sohasida - **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,9	43,6	13,5
Band bo'lganlar soni	35,2	54,1	10,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,3	48,2	10,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	41,0	48,7	10,3
Raqobat muhiti	48,9	41,1	10,0

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	59,1	37,9	3,0
Band bo'lganlar soni	47,1	50,4	2,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	55,1	42,4	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	56,0	41,3	2,7
Raqobat muhiti	58,0	38,9	3,1


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari va tadbirkorlik statistikasi bo'limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68